

O'SIMLIKLARDAN OLINGAN ALKALOIDLAR VA ULARNING FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ismoilova Shodiyabonu Rayimjon qizi

Alfraganus Universiteti tibbiyot fakulteti davolash yo'nalishi 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15671983>

Annotatsiya

Alkaloidlar – azotli organik birikmalar bo'lib, ular ko'pincha dorivor o'simliklardan olinadi va meditsina, farmatsiya, toksikologiya sohalarida keng qo'llaniladi, asosan esa o'simliklarda uchraydi va ko'plab farmalogik xususiyatlarga ega. Ushbu maqolada alkaloidlarning manbalari, kimyoviy tuzilmalari, farmalogik xususiyatlari va tibbiyotdagi qo'llanilishi yoritiladi.

KALIT SO'ZLAR: Alkaloidlar, dorivor o'simliklar, farmalogik faol moddalar, morfiy, rezeroin, vinkristin, fitokimyo, biologik faollik, antitumor ta'siri, analgetiklar, farmasevtik texnologiyalar, geneik muhandislik.

Alkaloidlar – kuchli fiziologik faollikka ega. Ular asosan urug' pallali o'skimliklar (dvoichnolistnye) guruhiga mansub oilalarga tegishlidir : makdoshlar (Papaveraceae) qo'ng'iroqdoshlar (Solanaceae), kofedoshlar (Rubiaceae), zig'irdoshlar (Linaceae) va boshqalar.

Kimyoviy tuzilish jihatidan alkaloidlar pirrol, piperidin, indol, tropan, isoquinoline va boshqa guruhlarni o'z ichiga oladi. Bu tuzilmalar ularning organizmdagi ta'sirini belgilaydi.

Ko'pgina alkaloidlar past dozada foyadali bo'lsa- da, yuqori dozada kuchli toksik ta'sir ko'rsatadi. masalan : strychnine va nikotin juda zaharli. Shuning uchun ham ularning dori shaklidagi qo'llanilishi qat'iy nazorat ostida bo'lishi kerak.

Hozirgi vaqtda alkaloidlarning sintetik analoglari va yarim sintetik hosilalari ishlab chiqilmoqda (masalan, tramadol- morfning sintetik o'xshashi).

Farmakologik xususiyatlari.

- 1.Og'riq qoldiruvchi (analgetik) xususiyat – morfiy kabi opioid alkaloidlar og'riqni bosh miya darajasida bostirish xususiyatiga ega. Ular og'ir jarrohlik yoki onkologik kasalliklarida keng qo'llaniladi.
- 2.Neyrostimulyator ta'sir - kofein va nikotin markaziy asab tizimini qo'zg'atadi, xushyorlikni oshiradi, lekin ortiqcha dozada qaramlik va toksiklik chaqiradi.
- 3.Antispazmodik va antixolinergik – atropin muskul spazmlarini kamaytiradi, yurak urishini tezlashtiradi, ko'z qorachig'ini kengaytiradi.U oftalmologiyada va zaharlanishlarda mototsiklin antagonist sifatida qo'llaniladi.
- 4.Antimalarial xususiyat – kinin alkaloidi Plasmodium parazitlariga qarshi samarali. Ilgari malyariya davolashda asosiy vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda alkaloidlar – o'simliklar tomonidan sintez qilinadigan, biologik jihatdan faol va ko'p qirrali ta'sirga ega moddalar bo'lib, zamonaviy farmatsiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Kelajakda ularning yangi farmalogik xossalari ochilishi ehtimoldan xoli emas. Ularning terapevtik foydasi bilan birga ehtiyotkorlik va aniq dozlashni talab qilishi ularni o'rganishni talab qiladi.

References:**Используемая литература:****Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov B “ Farmakognoziya asoslari “. T : 2020
2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi “ Dorivor o‘simliklar va ularning farmalogik xususiyatlari “ bo‘yicha uslubiy qo‘llanma, Toshkent, 2021
3. G‘ulomova N,K. “ Fitokimyo va alkaloidlar “ Toshkent farmasevtika institute, 2020
4. Sh.M. Xudoyberganov, M.Yu Yusupova. “ Farmasevtika kimyo“, O‘zbekiston farmasevtika akademiyasi nashriyoti, 2019.
5. I. M Azimov . “ O‘simliklardan olingan alkaloidlar va ularning biologik faolligi “ ilmiy maqolalar to‘plami, “ Tibbiyot va farmatsiya “ jurnali, 2021 – yil .
6. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST). “ Tanlangan dorivor o‘simliklar bo‘yicha monografiyalar “ tarjima nashri, Toshkent, 2018.